

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHERALIEV ABBOS XOLMUMINOVICH

TIJORAT BANKLARINING RENTABELLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025-yil

UO'K: 336.713:336.763(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Sheraliev Abbos Xolmuminovich.

Tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash yo'llari.....3

Sheraliev Abbos Xolmuminovich.

Пути обеспечения прибыльности коммерческих банков
.....27

Sheraliev Abbos Kholmuminovich.

Ways to ensure the profitability of commercial banks.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHERALIEV ABBOS XOLMUMINOVICH

TIJORAT BANKLARINING RENTABELLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2025-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2598 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.terasu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Alimardonov Ilxom Muzrabshoxovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xatamov Ochildi Kurbonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismailov Alisher Agzamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.07.2024.I.78.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2025 yil "____" _____dagi № _____raqamli reyestr bayonnomasi).

A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

U.T. To'likov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari
doktori, dotsent

S.J. Gadoev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash moliyaviy vositachilikning uzluksiz amal qilishi, kredit resurslarining real sektorga barqaror yo'naltirilishi hamda bank tizimi barqarorligini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Rentabellik yetarli darajada bo'lgan sharoitda banklar kapital bazasini kengaytira oladi, risklarni diversifikatsiya qilish, innovatsion moliyaviy mahsulotlar joriy etish va raqobatbardosh foiz siyosati yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa iqtisodiy o'sish drayveri sifatida xizmat qiladi. Aksincha, sust rentabellik kredit faolligining cheklanishi, aktivlar sifati yomonlashuvi va moliyaviy barqarorlikka tahdidlar ortishi xavfini kuchaytiradi. Shu boisdan, dunyo mamlakatlarining bank amaliyotida tijorat banklarining rentabelligini ta'minlashga banklar faoliyatini boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, "Fransiyaning "BNP Paribas" bankida aktivlarning rentabelligi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 7,7 foizli punktga oshdi, Germaniyaning Deutsche bankida mazkur davrda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi 4,4 foizli punktga pasaydi"¹. Bu esa, tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash borasidagi ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo miqyosda tijorat banklarining sof foizli spread hamda sof foizli marja ko'rsatkichlarining barqarorligini ta'minlash, bank mahsulotlari tannarxini innovatsion yechimlar asosida optimallashtirish, bank aktivlarining daromadliligi va likvidliligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, risk-menejment tizimini takomillashtirish, sof foyda o'sish sur'ati bilan riskka tortilgan aktivlar hajmi o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, jahon moliya bozorlarida kuzatilayotgan salbiy kon'yunktura va beqarorlik tendensiyalari sharoitida tijorat banklari rentabelligini barqaror darajada ta'minlash hamda stress-testlash mexanizmlari orqali moliyaviy inqiroz davrlarida rentabellikning maqbul chegarasini ta'minlash masalalari hali ham yetarlicha chuqur ilmiy asosda tadqiqotlar o'tkazilmagan yo'nalishlar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda Respublikasida tijorat banklari aktivlarining rentabelligini ta'minlash muhim masala hisoblanadi. Buning uchun mamlakat bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida "bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil oshishiga amal qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish"² singari vazifalar belgilab berilgan. Ushbu strategik

¹ Consolidated Statement of income 2023. Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income 2023. www.bankofamerica.com/

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga

vazifalarni amalga oshirish jarayonida tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini oshirish, kredit portfeli sifati va muddati o'tgan qarzdorlik hajmini kamaytirish, risklarni aniqlash, baholash hamda ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, muddati o'tgan kreditlarning salmog'ini qisqartirish orqali bank aktivlarining samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bank tizimi rivojining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar O.Lavrushin, Ye.Jukov, F.Mishkin, J.Sinki, E.Dolan, K.Barltrop, O.Xershi, V.Usoskin, D.Kornilov, Ye.Galiy, I.Stempovskiy, S.Urazov, M.Gorskiy, N.Semenova, I.Ivanova, A.Vasilkina, M.Bobrik, L.Ganseva, O.Voloshina, I.Leshukova, Ye.Dudin, S.Vayn, I.Yudina, V.Dorofeev, S.Kumok, N.Kunitsina, N.Baltes, S.Xasyanova, D.MakNoton, O.Krikliy, N.Maslak, M.Pijix, N.Radkovskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan³.

mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

³Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 154.; Жуков Е.Ф. Общая теория денег и кредита. – М.: Издательское объединение «ЮНИТИ», 1995. – С. 85.; Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С.216.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С.447.; Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: Санкт-Петербург Оркестр, 1994. – С. 90-93.; Барлтруп К., МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся рынках. -Всемирный банк, Вашингтон, 1993. – С. 53-54.; Hershey O. Letters of Credit. – Harvard Law Review. – Vol. 32. – P. 1-3.2021.; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.; Корнилов Д.Т. Устойчивость банковской системы в условияхрыночной конкуренции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, A.Abdullayev, T.Bobakulov, O.Yo'ldoshev, O.Sattarov, B.Berdiyarov, N.Jumayev, Z.Xolmaxmadov, A.Omonov, Sh.Ruzmetov, Yo.Mahmudaliyeva, F.Nasriddinov, Z.Umarova, R.Bozorov va boshqalarning ilmiy ishlarida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ayrim nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan⁴.

кандидата экономических наук. – Ярославль, 2005. -23 стр.; Галий Е.А. Анализ надежности и инвестиционной привлекательности коммерческого банка. Автореф. дисс. на дунёсоиск. уч. ст. к.э.н. – Санкт-Петербург, 2003. – 20 с.; Стемповский И.А. Обеспечение финансовой устойчивости банковской системы Российской Федерации в условиях глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2013. -27 стр.; Уразов С. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты. //Банковское дело. № 12.; Горский М.А., Решульская Е.М. Финансовая устойчивость коммерческого банка: феномен, показатели и методы оценки. // Вестник Алтайской академии экономики и права, 2020. – № 3-1. – С. 29-39.; Семенова Н. Н., Иванова И. А., Василькина А. А. Оценка устойчивости развития коммерческого банка на основе метода анализа иерархий. Финансы: теория и практика. 2021;25(4): 121-135 с.; Бобрик М.А. Совершенствование системы индикаторов финансовой устойчивости коммерческих банков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2011. -24 стр.; Ганцева Л.А. Обеспечение финансовой устойчивости коммерческого банка. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Екатеринбург, 2001. -22 стр.; Волошина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. – Поволжский регион, 2014. -1.-С. 168-172.; Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.; Дудин Е. В. Динамика прибыли российских банков в условиях экономического спада//Научное обозрение. – Москва, 2016. - № 10. - С. 139-141.; Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. Пер. с англ. – М.: Альпина аблише, 2013. – С. 16.; Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230-231.; Дорофеев, В. Д. Стратегическое планирование коммерческого банка//Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. – 2013. – № 2 (26) – С. 168.; Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М.: Вече, 1996. – С. 153.; Куница, Н. Н. Бизнес-планирование в коммерческом банке// – М. : Финансы и статистика, 2007. – 304 с.; Baltes Nicolae, Rodean (Cozma) Maria-Daciana "Study regarding the " nancial stability of commercial banks listed on Bucharest Stock Exchange of CAMELS rating outlook", *Journal of International Studies*, Vol. 7, No 3, 2014, pp. 133-143. DOI: 10.14254/2071-8330.2014/7-3/12.; Хасянова, С. Ю. О системе оценки финансовой устойчивости банковского сектора//Финансы и кредит. –2012.– № 2. – С. 24–25.; Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994.; Криклий О. А., Маслак Н. Г. Управління прибутком банку. Суми: ДВНЗ «УАБС НБУ», 2008. - 136 с.; Рижих М. М. "Оцінка якісних макроекономічних факторів та їхній вплив на прибутковість комерційного банку"// Національна бібліотека України ім. В. І. Вернадського. Режим доступа: [http://www.nbuv.gov.ua/ Articles/Kultnar/knp52_2/knp52_2_85-89.pdf](http://www.nbuv.gov.ua/Articles/Kultnar/knp52_2/knp52_2_85-89.pdf).; Радковская Н. П. Методологические подходы к управлению прибылью коммерческого банка // Банковский менеджмент. 2006. №1. С. 20–25.; Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230-231.

⁴Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2000. -46 b.; Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. –Toshkent, 2018. – 21 b.; Bobakulov T.I. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari. // O'zbekiston Respublikasida qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishda bank tizimining roli. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2015. –155 b.; Yo'ldoshev O.A. O'zbekiston Markaziy bankining tijorat banklari. faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 18 b.; Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidliligini ta'minlashni takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 15b., O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtis. fanlari doktori ilmiy daraj. olish uchun tayyorl. diss. avtor. – T., 2018.-42 b.; Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 30 b.; Jumayev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari

O'zbekistonlik tadqiqotchi R.Bozorov falsafa doktori dissertatsiyasida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va respublika banklari misolida faqat uchta ko'rsatkich orqali – aktivlarning rentabelligi, kapitalning rentabelligi va kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi ko'rsatkichlari orqali baholagan. Bundan tashqari, bank tizimini transformatsiya qilish sharoitida, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari tadqiq qilinmagan.

Garchi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari bo'yicha qator fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, bank tizimini transformatsiya qilish sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari hali ham mustaqil ilmiy izlanish obyekti sifatida kompleks tarzda o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejası bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarining rentabelligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarining rentabelligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatiga baho berish;

banklarning rentabelligini ta'minlash borasidagi ilg'or xorij tajribasini tadqiq qilish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslab berish;

O'zbekiston banklarining rentabelligini tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlash;

tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

tijorat banklarining rentabelligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston tijorat banklari, xususan, AT Asakabank, Turonbank, O'zsanoatqurilishbank va Mikrokreditbank hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash

doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2008.-35 b.; Xolmaxmadov Z.A. Tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ilg'or xorij tajribasi asosida ta'minlash imkoniyatlari. //Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2017. 4-son. –34 b.; Ruzmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 18 b.; Mahmudaliyeva Yo.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T., 2001. – 22 b.; Nasriddinov F. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashning xalqaro standartlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2018-yil.; Umarova Z.S. Tijorat banklarining kredit emissiyasini tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. –16 b. Bozorov R.X. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2020. 9-10-b.

jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsion tadqiqotni amalga oshirishda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining o'z biznes modeli, risk-apatiti va kapital yetarliligi talablarini regulyator talablari, investor kutilmalari va bozor rentabelligi bilan solishtirish asosida tanlangan "maqsad qiymat"ni belgilab olish orqali sof foydaning bank aktivlarini riskka tortilgan summasiga nisbatan optimal darajasini ta'minlash taklif etilgan;

kreditlarning tannarxini erta ogohlantirish tizimlarini qo'llash bilan bog'liq innovatsiyalar asosida kamaytirish orqali ularning daromadlilik darajasini oshirish taklif qilingan;

tijorat banklarida foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan barqaror darajasiga erishish hamda sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan sof foizli marja ko'rsatkichining darajasini oshirish asoslangan;

tijorat banklarining qo'shimcha aksiyalar emissiyasi, strategik investorlardan to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalar, ayrim qarz majburiyatlarini kapitalga konvertatsiya qilishni ko'zda tutuvchi qo'shilgan kapital hisobidan birinchi darajali kapital miqdorini ko'paytirish orqali kapitalning rentabellik darajasini oshirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyatiga baho berilgan;

tijorat banklarida sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish imkoniyatlari (foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, ikkinchidan, sof foizli marjaning darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spread, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyenti, foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik me'yoriy darajasini ta'minlash asoslab berilgan;

tijorat banklari yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirishga erishish, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyentining me'yoriy darajasini (0,45) ta'minlash, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli daromadlarning miqdorini va foizli daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirishning zarurligi asoslangan;

tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajalariga baho berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarining

solishtirma va tanqidiy tadqiqi, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari hamda tijorat banklari amaliy ma'lumotlarining moliyaviy hisobotlardan olinganligi, taklif va tavsiyalarining O'zbekiston bank amaliyotiga joriy etilganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan kelgusida tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan respublika tijorat banklari faoliyatida, ularning aktivlari rentabelligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash borasida ishlab chiqishdan taklif va tavsiyalar asosida:

tijorat banklarining o'z biznes modeli, risk-apatiti va kapital yetarliligi talablarini regulyator talablari, investor kutilmalari va bozor rentabelligi bilan solishtirish asosida tanlangan "maqsad qiymat"ni belgilab olish orqali sof foydaning bank aktivlarini riskka tortilgan summasiga nisbatan optimal darajasini ta'minlash taklifi AT "Mikrokreditbank" amaliyotiga joriy etilgan (AT "Mikrokreditbank"ning 2025-yil 20-fevraldagi №03-12/3510-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Mikrokreditbankda brutto aktivlarning rentabelligi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0,09 foizli punktga oshgan;

kreditlarning tannarxini erta ogohlantirish tizimlarini qo'llash bilan bog'liq innovatsiyalar asosida kamaytirish orqali ularning daromadlilik darajasini oshirish taklifi AT "Mikrokreditbank" amaliyotiga joriy etilgan (AT "Mikrokreditbank"ning 2025-yil 20-fevraldagi №03-12/3510-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Mikrokreditbankda kreditlarning daromadlilik darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,6 foizli punktga oshgan;

tijorat banklarida foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan barqaror darajasiga erishish hamda sof foizli daromadning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan sof foizli marja ko'rsatkichining darajasini oshirish taklifi AT "Mikrokreditbank" amaliyotiga joriy etilgan (AT "Mikrokreditbank"ning 2025-yil 20-fevraldagi №03-12/3510-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Mikrokreditbankda sof foizli marjaning darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 2,3 foizli punktga oshgan;

tijorat banklarining qo'shimcha aksiyalar emissiyasi, strategik investorlardan to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalar, ayrim qarz majburiyatlarini kapitalga konvertatsiya qilishni ko'zda tutuvchi qo'shilgan kapital hisobidan birinchi darajali kapital miqdorini ko'paytirish orqali kapitalning rentabellik darajasini oshirish taklifi AT "Mikrokreditbank"

amaliyotiga joriy etilgan (AT "Mikrokreditbank"ning 2025-yil 20-fevraldagi №03-12/3510-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Mikrokreditbankda regulyativ kapitalning rentabelligi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0,4 foizli punktga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish bo'yicha tavsiya etilgan milliy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib uning hajmi 124 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklarining rentabelligini ta'minlashning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari hamda xorij tajribasi”** deb nomlangan birinchi bobida, tijorat banklarining rentabellik darajasini oshirish masalasi iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan hamda tijorat banklari rentabelligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslari va tijorat banklari rentabelligini ta'minlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi batafsil yoritib berilgan.

Tijorat banklarining rentabelligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish ko'rsatdiki:

Amerikalik iqtisodchi olim J.Sinki o'z ilmiy izlanishlarida: “tijorat banklarining daromad bazasiga baho berishda sof foizli marja ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi. Sof foizli marja bank aktivlari miqdoriga teskari proporsional bo'lib, kreditlar va depozitlar bozorida yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi”⁵.

J.Sinki o'z ilmiy mulohazalarida sof foizli marja hisobidan muddatli depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasini oshirish imkoniyatini nazarda tutayapti. Haqiqatdan ham, sof foizli marja tijorat bankining kreditlardan olgan foizli daromadlari bilan muddatli depozitlariga to'lagan foizli xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

A.Kpikliy va N.Maslakning xulosasiga ko'ra, “tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar ichki va tashqi omillarga bo'linadi va ushbu omillar o'z navbatida intensiv va ekstensiv, bozor va ma'muriy usullarga bo'linadi”⁶.

Bunda, A.Kpikliy va N.Maslak tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir qiluvchi ekstensiv omillarga bankning resurs bazasini o'zgarishini, filiallari va xodimlarining sonini, ish vaqtining davomiyligini va resurslarni aylanish tezligini kiritadi.

M.M.Rijixning fikriga ko'ra, tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- siyosiy omillar (bank qonunchiligini o'zaro muvofiqlashmaganligi, siyosiy hokimiyatning barqarorligi)
- erishilgan natijalar va iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishlarini tavsiflovchi iqtisodiy omillar;

⁵ Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблицер, 2017. – С.338.

⁶ Криклий О. А., Маслак Н. Г. Управління прибутком банку. Суми: ДВНЗ «УАБС НБУ», 2008. - 136 с.

– xalqning turmush tarzidagi o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar;

– mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotning darajasini belgilovchi texnologik omillar (bank operatsiyalarini amalga oshirishning xavfsizligi, yangi bank mahsulotlarini joriy qilish);

– iqtisodiyotni rivojlanish tezligi va rag'batlantirishni belgilovchi vaqtinchalik omillar (jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga hukumatning munosabat bildirish tezligi, iqtisodiy rag'batlantirishg choralari o'z vaqtida amalga oshirilishi, hududlarni markaziy hokimiyat qarorlarini qabul qilinish tezligiga bog'liqligi);

– hududning iqtisodiy o'sishini taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishiga bog'liqligini tavsiflovchi global omillar⁷.

B.Berdiyarovning xulosasiga ko'ra, "tijorat banklari regulativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash, sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali aktivlarning rentabelligining barqaror darajasini ta'minlash zarur"⁸.

A.Abdullayevning xulosasiga ko'ra, "respublikamiz tijorat banklarida aktivlardan olingan daromadlarni me'yorga nisbatan 0,91 va 0,93 foizli punktga, olingan foydaning 0,81 va 0,96 foizli punktga past bo'lib, mazkur holatlar tijorat banklari resurslarini daromad keltiradigan aktivlarga qulay joylashtirilmaganligi bilan izohlanadi"⁹.

F.Xolmamatovning fikricha, "tijorat banklarida kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining me'yoriy darajasini oshirishga yo'l qo'ymaslik va sof foizli marja ko'rsatkichining barqaror darajasini ta'minlash yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning tijorat banklarining yalpi daromadi hajmidagi salmog'ini oshirish kerak"¹⁰.

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "birinchidan, mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlash Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi; ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan majburiy zaxira talabini qo'llaydi va ushbu majburiy zaxiralar banklarning Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi mablag'larini deponentga o'tkazish yo'li bilan va (yoki) Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag'ida majburiy zaxiralarni o'rtachalash koeffitsiyenti miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan majburiy zaxiralarning o'rtachalashtirilgan miqdorini

Рижих М. М. "Оцінка якісних макроекономічних факторів та їхній вплив на прибутковість комерційного банку".// Національна бібліотека України ім. В. І. Вернадського. Режим доступа: http://www.nbuv.gov.ua/Articles/Kultnar/knp52_2/knp52_2_85-89.pdf.

⁸ Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 30.

⁹ Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.

¹⁰ Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B. 25.

saqlab turish yo'li bilan ushlab turiladi; uchinchi, tijorat banklarida likvidlikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank likvidlikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli bo'lib, mazkur kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo'lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak; to'rtinchi, Markaziy bank kredit tashkilotlari faoliyatini, shu jumladan, tijorat banklarining faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi"¹¹.

"2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da respublika tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi vazifalar qo'yilgan: "moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish"¹².

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 27 noyabrdagi 3337-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga muvofiq, tijorat banklarining daromad bazasi ikki mustaqil manba hisobidan shakllanadi:

- foizli daromadlar;
- foizsiz daromadlar¹³.

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga baho berishda ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon bank amaliyotida tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini baholashda "CAMELS" reyting tizimiga asoslangan metodologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi hamda bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini aniqlashda keng qo'llaniladi.

1-jadvalda keltirilgan reyting mezonlari tijorat banklarining daromadlilik darajasini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida xizmat qiladi. Ushbu reyting tizimi bankning daromatlari hajmi, sifati, dinamikasi va ularning kapital yetarliligi hamda zaxira shakllantirishga

¹¹ O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020-y.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 27-noyabrdagi 3337-sonli qarori. Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.11.2021-y., 10/21/3337/1103-son.

ta'sirini kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Reytingning yuqori darajalari - ya'ni "1-kuchli" va "2-qoniqarli" toifalardagi banklardir.

Eng past - "5-qoniqarsiz" reyting darajasi esa tijorat bankining moliyaviy ahvoli jiddiy xavf ostida ekanligini bildiradi. Bunday banklarda faoliyat zarar bilan yakunlanadi, kapital yo'qotishlari ro'y beradi va bu holat ularning likvidlik darajasini hamda ishonchliligini sezilarli darajada pasaytiradi. Natijada, bankning moliyaviy barqarorligi izdan chiqadi, mijozlar ishonchi kamayadi va tizimiy risklar kuchayadi.

1-jadval

“CAMELS” reyting tizimida tijorat banklarining daromadlar bo'yicha reytingi¹⁴

Reyting	Asosiy mezonlar
1-kuchli	Daromadlar barqaror va operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta'minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun, daromadlarning sifati, miqdori va dinamikasiga ta'sir qiluvchi aktivlarning sifati, o'sishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yetarlidir.
2-qoniqarli	Daromadlar qoniqarli hisoblanadi. Ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta'minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun yetarli. Ammo, bank daromadlarni qayd etilgan omillar ta'sirida kamayish ehtimoli mavjud.
3-o'rta	Daromadlar yaxshilanishi kerak va ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta'minlash va zaxiralarni shakllantirish uchun, daromadlarning sifati, miqdori va dinamikasiga ta'sir qiluvchi aktivlarning sifati, o'sishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, yetarli emas.
4-chegaraviy	Daromadlar yetarli emas, ular operatsiyalarni amalga oshirish, kapitalning yetarliligini ta'minlash va zaxiralarni shakllantirishni zarur darajada ta'minlay olmaydi. Reytingning ushbu darajasini olgan tijorat banklari uchun foyda va sof foizli marjaning beqaror tebranishi, sezilarli salbiy tendensiyalarning mavjudligi, nominal va beqaror daromadlar, davriy zararlar va daromadlarning oldingi yillarga nisbatan kamayishi xos.
5-qoniqarsiz	Daromadlar yetarli emas. Tijorat banki sezilarli darajada zarar ko'rayotganligi sababli kapitalining yo'qotilishi yuz bermoqda va buning natijasida uning moliyaviy barqarorligi xavf ostida qolmoqda.

Biz quyida AQSHning eng yirik transmilliy banklaridan biri bo'lgan Bank of Amerika bankining rentabelligiga baho beramiz.

2-jadval

Bank of America bankining (AQSH) foizli daromatlari va foizli xarajatlari dinamikasi¹⁵

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024-yilda 2020-yilga nisbatan, marta
Foizli daromadlar, mlrd. AQSH dollari	51	47	72	130	146	2,8
Foizli xarajatlar, mlrd. AQSH dollari	8	5	20	73	90	11,3

¹⁴ Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

¹⁵ Jadval muallif tomonidan “Bank of America” bankining 2020-2024 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadvaldan ko'rinib turibiki, Bank of America bankining foizli daromadlarining miqdori 2022-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, Bank of America bankining foizli daromadlarining miqdori 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori darajada oshganni kuzatish mumkin. Ushbu holat, bankning daromad bazasini mustahkamlash va moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy omil sifatida baholanadi.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Bank of America bankining foizli xarajatlarning miqdori 2022-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shuningdek, Bank of America bankining foizli xarajatlarning miqdori 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan.


3-jadval

AQSHning "Bank of America" bankida kreditlarning miqdori va daromadlilik darajasi¹⁶

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Kreditlar, mlrd. AQSH dollari	909	966	1033	1040	1082
Berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi, %	3,7	3,0	3,7	5,5	5,6

3-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, Bank of America bankida berilgan kreditlarning miqdori 2020-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, kreditlarning miqdori 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

3-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, Bank of America bankida berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur'atda, ya'ni 1,9 foizli punktga o'sgan. Mazkur o'sish, berilgan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atini brutto kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.




1-rasm. Bank of America bankining (AQSH) sof foizli daromadi va sof

¹⁶ Jadval muallif tomonidan "Bank of America" bankining 2020-2024 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

foydasi¹⁷, mlrd. AQSH dollari

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Bank of America bankining sof foizli daromadlarining miqdori 2020-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda bankning foizli daromadlarning o'sish sur'atini foizli xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. SHuningdek, bank sof foizli daromadlarining miqdori 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Bank of America bankining sof foydasining miqdori 2021-2023 yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. biroq, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.



2-rasm. AQSHning "Bank of America" bankida brutto aktivlar va kapitalning rentabelligi¹⁸, foizda

2-rasmdan aniq ko'rsa bo'ladiki, Bank of America bankida, brutto aktivlarning rentabelligi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

2-rasmdan aniq ko'rish mumkinki, Bank of America bankida regulyativ kapitalning rentabelligi 2021-2023 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Dissertatsiyaning "O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari rentabelligining zamonaviy holati" deb nomlangan ikkinchi bobida Banklarning rentabelligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi, tijorat banklar rentabelligining amaldagi holati va tijorat banklari rentabelligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.

Banklarning rentabelligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining daromad

¹⁷ Rasm muallif tomonidan "Bank of America" bankining 2020-2024 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁸ Rasm muallif tomonidan "Bank of America" bankining 2020-2024 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bazasini tavsiflovchi bir qator ko'rsatkichlar taklif qilingan.

Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining metodikasida tijorat banklarining rentabelligini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar o'z ifodasini topgan¹⁹:

1. Sof foizli spred ko'rsatkichi.

Ekspertlar tomonidan ushbu ko'rsatkichni hisoblashning quyidagi metodikasi taklif qilingan:

$$(KOFD : KO'S) \times 100 \% - (DTF : FTD) \times 100 \%$$

Bu yerda:

KOFD – kreditlardan olingan foizli daromadlar;

KO'Q – kreditlarning o'rtacha qoldig'i;

DTF – depozitlarga to'langan foizlar;

FTD – foiz to'lanadigan depozitlar.

Mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasi: 1,25 %.

2. Foizli daromadlarning daromad keltiradigan aktivlarning o'rtacha qoldig'iga nisbati. Mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajalari bo'yicha tijorat banklarini quyidagi sinflarga ajratish tavsiya etilgan: birinchi sinf – 4,6 %; ikkinchi sinf – 4,0 %; uchinchi sinf – 3,7 %; to'rtinchi sinf – 3,4 %; beshinchi sinf – 3,2 %.

3. Foizsiz daromadlarning foizli marjaga nisbati.

– Ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajalari bo'yicha tijorat banklarini quyidagi sinflarga ajratish tavsiya etilgan: birinchi sinf – 48 %; ikkinchi sinf – 52 %;

uchinchi sinf – 57 %; to'rtinchi sinf – 61 %; beshinchi sinf – 64 %.

Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan tavsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirish hamda uning barqarorligini ta'minlash jarayonida foizli daromadlar, xususan kredit operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan shkalalar tahlili shuni ko'rsatadiki, foizli daromadlarning aktivlarga nisbatan ulushi ortib borishi bank faoliyatining ijobiy dinamikasini aks ettiradi. Shu bilan birga, foizsiz daromadlarning foizli marjaga nisbatan oshib borishi esa, moliyaviy natijalar nuqtai nazaridan salbiy holat sifatida baholanadi.

Bizning fikrimizcha, foizli va foizsiz daromadlarni baholashda qo'llanilgan mazkur yondashuv tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu holat, o'z navbatida, foizli daromadlarning asosiy qismini tijorat banklarining asosiy faoliyat turidan oladi. Banklar uchun ikkita asosiy faoliyat turi mavjud: kreditlar berish va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.

Tijorat banklarining rentabelligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlar bo'lib, aktivlarning rentabelligi va kapitalning rentabelligi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

¹⁹ Банковское дело. Учебник. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 243-244.

Aktivlarning rentabelligi ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning jami (brutto) aktivlar hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi, bunda olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi.

Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichiga nisbatan aniq me'yoriy qiymat belgilanmagan. Shu bois, ushbu ko'rsatkichni baholash jarayonida moliyaviy tahlilning qiyosiy tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kapital rentabelligi ko'rsatkichi tijorat bankining sof foydasini uning regulativ kapitali hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi, bunda olingan natija 100 foizga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichidan farqli ravishda, kapital rentabelligi uchun aniq me'yoriy qiymat belgilangan bo'lib, uning tavsiya etilgan darajasi 15 foizni tashkil etadi.

Tijorat banklarining daromad bazasining barqarorligi, asosan, ularning xarajatlar miqdori hamda ushbu xarajatlarning o'zgarish dinamikasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu munosabat bilan, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz.

Mazkur paragrafda tadqiqotning obyekti bo'lgan aksiyadorlik-tijorat banklari – Turonbank, Asakabank, Sanoatqurilishbank va Mikrokreditbank misolida respublikamiz tijorat banklarining rentabelligini tahlil qilamiz.

4-jadval

AT "Turonbank" daromadlarining tarkibi, foizda²⁰

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Foizli daromadlar	84,2	83,3	75,8	76,4	78,2
Foizsiz daromadlar	15,8	16,7	24,2	23,6	21,8
Daromadlar - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-2024-yillarda Turonbank daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan; foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, mazkur davrda foizsiz daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklarining asosiy faoliyat turidan foizli daromadlar olinadi. Shuning uchun tijorat bankining jami daromadlari hajmida foizsiz daromadlarning ulushining yuqori bo'lishi bankning moliya bozorlaridagi pazitsiyasi zaiflashayotganligini ko'rsatadi. Shu sababli, Turonbankning jami daromadlari hajmida foizsiz daromadlarning ulushini 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi bankning rentabelligini ta'minlash

²⁰ Jadval muallif tomonidan Turonbankning moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

nuqtai-nazaridan salbiy holat bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek foizli daromadlarning Turonbankning jami daromadlardagi ulushini 2020-2022-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bankning rentabelligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat bo'lib hisoblanadi.

Turonbankning foizli daromadlarining tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi.

Bu esa, kreditlarni brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Turonbankda 2020-2024-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.


5-jadval

AT "Turonbank" da kreditlardan olingan foizli daromadlarning va kreditlarning darajasi, foizda²¹

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi	74,8	76,8	80,8	92,3	92,1
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i	76,5	73,8	73,2	74,6	71,4

